# Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

## “Tarix va arxeologiya fanlari” yo‘nalishi

| Loyiha mavzusi | Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija |
|---|---|
| **Temuriylar davri manbalari elektron platformasini yaratish**<br> | **Tadqiqot shakli:** Amaliy.<br>**Ilmiy tadqiqot natijalari:**<br>- temuriylar davri tarixiga oid barcha tur (moddiy, yozma, og‘zaki, tasviriy) va tillardagi (o‘zbek, fors, arab, turkcha, xitoy, yunon fransuz, nemis, ispan, arman, ingliz, rus va boshqalar) birlamchi manbalar, xususan, **120 dan** ortiq yozma manba**, 200 dan** ortiq tarixiy hujjat, **400 dan** ortiq san’at asari, **100 ga** yaqin inshootlar (madrasa, masjid, istehkom, ariq va boshqalar), **1000 dan ortiq** ashyoning to‘liq ilmiy tavsifi, mavzuli tahlili, manzilli ma’lumotnomasini o‘z ichiga olgan elektron platforma yaratiladi;<br>- temuriylar davri tarixiga bag‘ishlangan teran ilmiy asarlar, manbashunoslik va tarixshunoslikka oid ilmiy ishlar, jumladan, dissertatsiyalar yaratish, ta’lim tizimining barcha bosqichlari uchun elektron darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarning yangi avlodi tayyorlanadi;<br>- “O‘zbekiston tarixi” telekanali uchun temuriylar sulolasi davrining siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tarixining turli yo‘nalishlari bo‘yicha ilmiy asoslangan ma’lumotlar asosida turkum ko‘rsatuvlar tayyorlanadi;<br>- “Temuriylar davri manbalari” ilmiy asari tayyorlanadi;<br>- “Temuriylar davri manbashunosligi” o‘quv qo‘llanmasi tayyorlanadi;<br>- sayyohlik xizmatlari uchun temuriylar tarixining turli masalalariga oid yangi ilmiy ma’lumotlarni aks ettiruvchi elektron qo‘llanmalar tayyorlanadi.<br>**Natijalarni sinovdan o‘tkazish.** Olingan natijalar Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tasarrufidagi tashkilotlarda, oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari, tarix muzeylari, “O‘zbekiston tarixi” telekanalida sinovdan o‘tkaziladi sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida **Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi** yoki **Fanlar Akademiyasi**ning xulosasi olinadi.<br>**Ilmiy natijalarni chop etish.** Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va *Web of Science/Scopus* ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi<br>**Izoh.** Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar **Madaniyat vazirligi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi** yoki **Fanlar Akademiyasi**ning qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi. |